



**O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi**

**O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-
pedagogik respublika tashxis markazi**

**INKLYUZIV TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI:
MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI**

respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO'PLAMI



Toshkent-2022

Mehr–muhabbat bu bolalar uchun dolimo yaqinlaridan ham g‘amxo‘rlikni oshirish lozim. Bag‘riga bosish yaxshi so‘zlar aytish.

Ijodkorlik-inklyuziv bola uchun yangi metodlar usullardan foydalanaish o‘zgacha yondashish zarur.

Do‘stlashish-juma sinf soati darsida shukronalik daqiqasi. Yani har bir bola o‘zi uchun tilak oilasi ustozlari uchun o‘rtoqlari uchun albatta shu bola ushuncha tillak aytish. Sinfda tengdoshlari orasida o‘zaro mehrni shakllantiradi.

Bunday bolalar uchun albatta maktabda sinfda ham g‘amxo‘rlik zarur. Bola ruhiy rivojlanishi uchun zarur. Biroq g‘amxo‘rlik ortiqchasi bolani tarbiyasiga ta’sir qiladi. Haddan oshiq mukofotlar dars davomida ko‘proq darsga qatnashtirishi salbiy muhitni shakllantirishga yo‘l ochadi. Eng asosiysi sinfda bolalar bunday bolaga nisbatan mehrni emas balki qahrni rivojlantirib qo‘ygan bo‘lishimiz mumkin. Bunday bolalalar uchun davlat tomonidan maxsus tayyorlangan bilimga professional shifokor ko‘rigiga muhtoj. 6 oy yoki 1 yil davomida maxsus tekshiruvlar o‘tkazilishi, ko‘riklar natijasida yaxshi sog‘lom o‘sishi uchun ma’lum normalarni belgilaydi O‘qituvchi uchun ham katta ko‘mak vazifasini ko‘rsatadi. Pedagogik faoliyati ta’lim tarbiyasi uchun yordam beradi.



INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI YARATISHDA PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERINING ROLI

Sh.Kobilova Chirchiq davlat
pedagogika universiteti Pedagogika
fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limni tashkil etishda pedagogik ta’lim innovatsion klasterining o‘rni va ahamiyati, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta’lim muassasasida oddiy tengdoshlari qatorida tahsil olishi uchun zaruriy shart-sharoitni yuzaga chiqarishi, ta’lim makonini barqarorlashtirish, mavjud diskriminatsion muammolarni bartaraf etishi, kelajakda istiqbolli imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi omil ekanligi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, inklyuziv, imkoniyati cheklangan o‘quvchi, model, klaster, faoliyat, sifat, samaradorlik, istiqbol, pedagogik jarayon.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son Qarorga muvofiq “2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmlari va yo‘l xaritasi shakllantirilib, mas’ul bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlari o‘z vakolatlari doirasida ushbu konsepsiyani amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun jadal rivojlanayotgan va takomillashtirilayotgan umumiy ta’lim tizimi keyingi kasbiy ta’lim uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu an’anaviy ravishda ularni umrbod ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, istiqbolda kasbiy faoliyatni tanlash, kelajakda ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishda, hamda jamiyatni barcha sohalarida to‘liq va adekvat ijtimoiy faolligini ta’minlaydi.

Albatta bu jarayon, inklyuziv ta’limda Pedagogik ta’lim innovatsion klasterini taqozo etishi va uning asosida yanada samarali amalga oshishi shu kungacha bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar negizida aks etmoqda.

S.V.Alexinoy va M.M.Semago ilmiy mulohazalariga ko‘ra ta’limdagi inklyuziv jarayon deganda, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta’lim muassasasida oddiy tengdoshlari muhitiga kiritish va qabul qilishni, moslashtirilgan yoki individual ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim

ehtiyojlari nuqtayi nazaridan o'qitishni ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayoni tushuniladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim olishida asosiy narsa tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim va ijtimoiy tajribani egallashidir. Inklyuziv ta'lim samaradorligining asosiy mezonlari bu-barcha yoshlarni, shu jumladan alohida ta'limga muhtoj bolalarni sotsializatsiya jarayoni va madaniy ongini oshirish, hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishdir.

Bugungi kunda jamiyatimizda, inklyuziv ta'lim jarayoni haqidagi ilmiy-nazariy g'oyalar xilma-xil bo'lib, inklyuziv ta'lim to'liq standartlar asosida joriy etish yuzasidan aniq va tayyor o'qitish modellari ishlab chiqilmagan, hamda rivojlanishini konstruktiv tavsiflash imkonini beruvchi mexanizmlar to'liq shakllantirilmagan.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'quv mashg'ulotlarga tez moslashish elementlarini o'zida shakllantirgan trening mashg'ulotlar majmuasini tashkil etish, uni qo'llash faoliyatini amalga oshirish yuzasidan ilg'or pedagogik texnologiyalar dasturini ishlab chiqish zarur. Inklyuziv ta'lim jarayonida maxsus o'quv sharoitlarini yaratish, ularni amaliyotga joriy etish, har qanaqangi ziddiyat va ijtimoiy muammolarni chetlab o'tgan holda har bir imkoniyati cheklangan bolalarni, nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish uchun o'quv dastur va o'quv-uslubiy rejalarini Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida zamonaviy modelini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim klaster modelini ishlab chiqish va joriy etish zarurati nimada, hamda buning uchun qanday ehtiyoj bor degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Zamonaviy ta'limning yangi paradigmasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ya'ni dunyoni istalgan nuqtasida mavjud bo'lgan ta'lim jarayonida ishtirok etish va istalgan ish joyida faoliyat olib borish, hamda har qanaqa holatda uzluksiz ta'limning asosiy maqsadiga erishish nuqtayi nazaridan faoliyatni muvofiqlashtirib borish faqat klaster sharoiti asosida yuzaga chiqarilishi mumkin.

Ta'lim va klaster so'zining o'zaro bog'liqligi xususida bir qator tadqiqotchilar ilmiy mulohazalarini bildirib, uning mazmun mohiyati haqida quyidagi ta'riflarni berishgan.

Ye.P. Belan klaster yondashuviga o'tish zarurati kasb-hunar ta'limi tizimi samaradorligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlar sa'y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli sifatidagi afzalliklari bilan ham izohlanadi deydi. Shuningdek, uning nuqtayi nazaricha ta'lim klasterini shakllantirish va rivojlantirish kasbiy ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etib, sohalararo integratsiya jarayonini yanada muvofiqlashtiradi.

Garvard universiteti professori M.Porter 1990-yilda biznes texnologiyalari sohasidagi klaster haqida fikr yuritib, umumiy faoliyat bilan ajralib turadigan va bir-birini to'ldiruvchi ma'lum hududlarda faoliyat yurituvchi, jug'rofiy jihatdan bir-biriga bog'langan kompaniyalar va bog'liq tashkilotlar guruhi tushuniladi degan ilmiy mulohazani ilgari surgan. Uning mulohazasiga ko'ra, dastlab sanoat va bilim talab qiladigan tarmoqlar uchun ishlab chiqilgan ushbu yondashuv asta-sekin jamiyat faoliyatining boshqa sohalariga ham kirib kela boshlaydi, ko'p jihatdan klasterni keng qo'llanilishi, yuqori samaradorlik va tashkil etish qulayligi bilan bog'liq.

Klaster so'zning mohiyatini uni etimologiyasiga murojaat qilish orqali ochib berish maqsadga muvofiqdir. Klaster inglizcha ("Cluster"- "klaster") so'zdan olingan bo'lib, bir nechta bir xil elementlarning birikmasi va ma'lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik degan ma'nolarni anglatadi.

Klaster-bu ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi, umumiy faoliyat bilan tavsiflangan va bir-birini to'ldiruvchi qo'shni o'zaro bog'langan kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhi.

Bizning nuqtayi nazarimizcha inklyuziv ta'lim klasteri-imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilar uchun fan va innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalari zanjirini maqsadli va manfaatli bog'langan, maxsus ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish vositalari tizimi bo'lib, tolerantlik negizida shakllanadigan gorizontaal aloqalar munosabatiga asoslangan zamonaviy yondashuvdir.

Shunday qilib, klaster-bu bitta faoliyat sohasi bo'yicha birlashtirilgan va bir-birini to'ldiradigan hududiy, hamda o'zaro manfaatdor korxona va tashkilotlar majmuasidir. Ta'lim klasterining asosiy farqi uning ishtirokchilari tarkibida ta'lim muassasalarini yetakchi rolida emas,

balki klaster faoliyati natijasi bo'lgan o'ziga xos (ta'lim xizmati, o'quv jarayoni va kadr) mahsulot sifatidadir. Ta'lim klasterida asosiy mahsulot ta'lim xizmatlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta'lim klasteri turli darajadagi va mutaxassislikdagi ko'plab ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Biroq, sanoat va ta'lim klasterlarini ajratish nafaqat akademik qiziqish, balki amaliy g'oyadir. Agar klaster ta'lim muassasalar ishtirokidagi tarmoq klasteri sifatida qaralsa, u holda klaster korxonalarida xodimlarning bilim darajasini oshirish vazifalari, boshqaruvni ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Bunda, korxona tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga so'rovni shakllantirish, ta'lim muassasalaridagi ilmiy potensial orqali mavjud ishlanma va texnologiyalarni tijorat jihatdan muvaffaqiyatli mahsulotga aylantirish vazifalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

A.V.Smironov ta'kidlaganidek, agar klaster tizimi va uning maqsadi-ta'lim mazmuniga singdirilsa, mintaqada ta'lim sifati barqaror samaradorlikka erishadi, hamda jamiyat uchun ustuvor vazifaga aylanadi[6]. Biz bugungi kunda respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limning klaster modelini joriy etish ustuvor masalalardan biri deb bilamiz. Chunki bu zamon talabi bo'lib, dunyo hamjamiyati bilan integratsiya jarayoni tezlashib borayotgan bir davrda, chetda qoladigan masalalardan emas. Uning nazariy asosi mustaqil hayot falsafasi bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat bilan integratsiyasi va sotsializatsiyasini ta'minlash, hamda ularni mavjud qobiliyatlarini ro'yobini yuzaga chiqarishdir.

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim klasterida markaziy o'rinni umumiy maqsad egallaydi, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarga zamonaviy ta'lim dastur va xizmatlaridan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida, imkoniyati cheklangan bolalar o'qish va o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishadi, shaxsiy ko'nikmalarini shakllantiradi, hamda kasbiy qiziqishlarini rivojlanishga bo'lgan ishtiyoq ortib, istiqbolida egallashi zarur bo'lgan kasb yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qiladi.



INKLYUZIV TA'LIMNI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK OMILLARI VA UNING INNOVATSION KLASTER SHAROITLARI

Sh.Kobilova-Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi,
Z.Rustamova, F.Abdushukurova-CHDPU Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika kafedrasida 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning klaster modelini ishlab chiqish va amaliyotga realizatsiya etish masalalari, bu jarayon real ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi lozimligi, amaliy ahamiyati, amalga oshirish yuzasidan mas'ul va manfaatdor tashkilotlarning hamkorlik faoliyatlari, hamda samaradoligi yuzasidan ilmiy qarash va tahlillar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, imkoniyati cheklangan o'quvchi, klaster, model, ilmiy tadqiqot, ijtimoiylashuv, integratsiya, ta'lim, samaradorlik, yondashuv, ilmiy mulohaza

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishning klaster modeli inklyuziv ta'limni ta'minlaydigan mas'ul va manfaatdor vazirlik va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni zamonaviy pedagogik, hamda tashkiliy masalalarini taqozo etadi. Inklyuziv klaster sub'ektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishi, mavjud muammo ustida ishlash jarayonida barqaror hamkorlikni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon inklyuziv ta'lim ishtirokchilarni ham, klasterning ham o'ziga xos afzalliklarini yuzaga chiqaradi.

R.M.Asadullin ta'kidlaganidek, ta'lim klasteridagi integratsiya nafaqat ta'lim muassasalarining turli tarkibiy bo'linmalarini rasmiy birlashmasi, balki qo'yilgan vazifalarni hal qilishda super effektga erishish uchun mavjud potensiallarni konyugatsiya qilishni yangi shaklidir.

G.Aliyeva, Inklyuziv sinfda alihida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari.....	216
Sh.Xosiljonova, Inklyuziv ta'lim amaliyotda.....	219
M.Ismailova, Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga saralash.....	220
Sh.Kurbanova, Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagog xodimlar faoliyati va ota-onalar hamkorligi.....	223
G.Asrorova, Inklyuziv ta'limning istiqbolli kelajagi va amaldagi islohotlari.....	226
A.Yuldashev, Inklyuziv ta'limga jalb qilishda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish	228
M.Yuldasheva, Inklyuziv ta'limda bir yillik samarali mehnat va natijalar	231
Sh.Kobilova, Inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining roli.....	233
Sh.Kobilova, Z.Rustamova, F.Abdushukurova, Inklyuziv ta'limni ijtimoiy-pedagogik omillari va uning innovatsion klaster sharoitlari.....	235
M.Nizamova, Z.Yusupova, Inklyuziv ta'lim tizimining asosiy tamoyillari.....	237
N.U.Xo'jaqulova, Inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion fanlarda kitobxonlik madaniyatini shakllanishida axloqiy tarbiyaning psixologik xususiyatlari	241
Y.A.Xomidova, Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari:muammo va ularning echimlari asnosida kichik maktab yoshidagi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish.....	242
R.N.Botirova, Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari:muammo va ularning yechimlari "voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda kitobning o'rni".....	245
G.Xasanova, Inklyuziv ta'limda alohida yondashuvning ahamiyati	246
D.R.Djurayeva, Inklyuziv ta'limda insonparvarlik g'oyalarining o'rni.....	248
Sh.Nosirova, Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilishda ota-onalarga tavsiyalar	250
D.Alimova, Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvning afzalliklari	251
D.Alimova, Shaxs xususiyatlarini diagnostikalash metodlariga qo'yiladigan talablar	253
Sh.T.Gafurova, Inklyuziv ta'limda maktab va oila hamkorligining amaliy asoslari	256
G.Q.Haydarova, Xalq ta'limi muassasalarida inklyuziv ta'lim masalalari.....	258
G.M.Salixova, Oilada nogironligi bo'lgan kar va zaif eshittuvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligi.....	260
S.M.Bahriddinova, Ta'lim tashkilotlarida innovatsion inklyuziv ta'limni tashkil etish masalalari.....	264
M.Nizamova, P.Botirova, Imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik jihatdan o'rganish.....	266
Ch.M.Ulug'murodova, Inklyuziv ta'lim sinfi va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda matematika darslarini tashkil etish	270
B.Z.Fozilov, Inklyuziv ta'lim" tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.....	273
B.M.Abdullayev, "Inklyuziv ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisligini tashkil etishning maqsadi va vazifalari.....	275
N.J.Mavlonova, Inklyuziv mahoratda nutqning ahamiyati.....	277
M.A.Nasirova, Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan maxsus pedagogning zamonaviy qiyofasi.....	279
D.Abdullayeva, Olamzor tumanidagi umumta'lim maktabida inklyuziv ta'lim.....	281
A.M.Yuldashev, Inklyuziv ta'limga jalb qilishda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish.....	283
D.S.Sabirova, Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha va tavsiyalar, o'zbekistonda inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yilishi	286